



SAMARQAND VILOYATI QO‘SHRABOT TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2026-yil 16-fevral

11-7-97-F/26

Qo‘shrabot tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori hamda 2024 yil 30-dekabrdagi 910-sonli qarori yuzasidan tuman hokimligida “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish, o‘tkazish tizimini muvofiqlashtirish, Davlat xaridlari komissiyasi tarkibini tashkil etish, Davlat organlari va tashkilotlari huzurida jamoatchilik kengashi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori hamda 2024 yil 30-dekabrdagi 910-sonli qarori yuzasidan tuman hokimligida “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish, o‘tkazish tizimini muvofiqlashtirish, Davlat xaridlari komissiyasi tarkibini tashkil etish, Davlat organlari va tashkilotlari huzurida jamoatchilik kengashi tarkibini tasdiqlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuning 6-moddasiga asosan;

1.Tumani hokimligida Davlat xaridlarini ta‘minlash bo‘yicha Davlat xaridlari amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi belgilansin.

2.Tuman hokimligida davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi xuzurida jamoatchilik kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.Tuman hokimligi tizimida davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan reglament 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.Doimiy tanlov komissiyasi zimmasiga ish xizmatlar va tovarlar xarid qilishda O‘zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun talablaridan kelib chiqqan xolda ish xizmatlar va tovarlar etkazib beruvchi tashkilot yoki

korxonalarining eng yaxshi takliflarini elektron shaklda o‘rgangan xolda xaqqoniy qaror chiqarish yuklatilsin.

7.Tuman hokimligi hisobxonasiga ish, xizmatlar va tovarlarni xarid qilishda e’lon auksin savdo va konkursnlarni Respublika xom – ashyo birjasi elektron portaliga joylashtirish shartnomalarni savdo natijalari ichki tanlov komissiyasi qaroriga asosan tuzish, G‘aznachilik bo‘linmasiga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim qilish hamda g‘aznachilik ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng to‘lovlarni amalga oshirish yuklatilsin.

8.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Xoliqulov) bajarilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo‘yicha monitoring o‘tkazish yuklatilsin

9.Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Tuman hokimi



D.Shakarboyev

Qo‘shrabot tumani hokimining
2026-yil 16-fevraldagi
11-7-97-F/26-son farmoyishiga
1-ilova

Tuman hokimligida davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha xarid komissiyasi tarkibi

| № | F.I.SH | Amaldagi lavozimi | Komissiyadagi vazifasi |
|----------|----------------|--|-------------------------------|
| 1 | Q. Xoliqulov | Tuman hokimi moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosar-tuman Iqtisodiyor va moliya bo‘limi boshlig‘i | Komissiya raisi |
| 2 | E. O‘ralov | Tuman hokimining qurilish komunikatsiyalar. Komunal xo‘jalik ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bosh mutaxasisi | Komissiya kotibi |
| 3 | I.Xoliqulov | Tuman hokimining qurilish komunikatsiyalar. Komunal xo‘jalik ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari boyicha o‘rinbosari | Komissiya a‘zosi |
| 4 | Sh.Haydarov | Tuman hokimining o‘rinbosari Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i | Komissiya a‘zosi |
| 5 | O. Eshqulov | Tuman hokimining yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish va manaviy-marifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari | Komissiya a‘zosi |
| 6 | S. Maxmudova | Tuman hokimining o‘rinbosari Oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i | Komissiya a‘zosi |
| 7 | A.Ashurov | Tuman hokimining yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari bosh mutaxasisi | Komissiya a‘zosi |
| 8 | D. Mirzanov | Yoshlar agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i | Komissiya a‘zosi |
| 9 | J. Tursunqulov | Tuman hokimligi bosh hisobchi yordamechisi | Komissiya a‘zosi |

Qo'shrabot tumani hokimining
2026-yil 16-fevraldagi
11-7-97-F/26-son farmoyishiga
2-ilova

Tuman hokimligi xuzurida jamoatchilik kengashi tarkibi

| № | F.I.SH | Amaldagi lavozimi | Jamoatchilik kengashi tarkibidagi lavozimi |
|---|---------------|--|--|
| 1 | Sh.Janiqulov | Qo'shrabot tumani Nuroniylar kengash raisi | Kengashi raisi |
| 2 | I.Sayfiddinov | Adolat Sotsial-Demokratik partiyasi Qo'shrabot tumani kengashi raisi | Kengashi raisi o'rinbosari |
| 3 | G'.Xoshimov | O'zLiDeP Qo'shrabot tumani kengashi raisi o'rinbosari apparat raxbari | Kengashi a'zosi |
| 4 | A.Achilov | Shovana mahalla fuqarolar yig'ini Nuroniylar maslahatchilar kengashi raisi | Kengashi a'zosi |
| 5 | D.Saitova | "Vatanparvar" Qo'shrabot tumani texnika o'quv markazi yo'riqchisi | Kengashi a'zosi |
| 6 | A.To'xtarov | O'zbekiston ta'lim va fan hodimlari Kasaba uyushmasi Qo'shrabot tumani bo'linmasi kengashi raisi | Kengashi a'zosi |
| 7 | Sh.Qurdoshev | Tuman ommaviy axborot vositalarining jamiyat vakili | Kengashi a'zosi |

Qo‘shrabot tumani hokimining
2026-yil 16-fevraldagi
11-7-97-F/26-son farmoyishiga
3-ilova

Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari

I. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

1. Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta‘minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha davlat organi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

2. Davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

3. Davlat organi faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

II. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Davlat organining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat organiga tegishli takliflar kiritadi;

2. Davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va davlat organi faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

III. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

1. Davlat organi tomonidan tashkil etiladigan bo‘lajak ochiq hay‘at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

2. Davlat organi, uning hududiy bo‘linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

3. Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

**Tuman hokimligi tizimida davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi mazkur
qaror bilan tasdiqlanayotgan reglament**

I. Umumiy qoidalar

1. Davlat xaridlari elektron platforma orqali amalga oshiriladi.
2. Xarid jarayoni ochiqlik, shaffoflik, raqobat va tenglik tamoyillariga asoslanadi.
3. Xaridlar tasdiqlangan yillik va choraklik reja asosida amalga oshiriladi.

II. Xarid jarayonining bosqichlari

1. Ehtiyojni aniqlash
2. Texnik topshiriq ishlab chiqish
3. Xarid usulini belgilash
4. Elektron e’lon joylashtirish
5. Takliflarni qabul qilish
6. Baholash
7. G‘olibni aniqlash
8. Shartnoma tuzish
9. Ijroni monitoring qilish

III. Baholash mezonlari

1. Takliflar quyidagi mezonlar asosida baholanadi
2. Eng maqbul narx
3. Sifat ko‘rsatkichlari
4. Yetkazib berish muddati
5. Kafolat shartlari
6. Texnik talabga muvofiqlik

IV. Shaffoflik va javobgarlik

1. Komissiya a’zolari manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda ovoz berishda ishtirok etmaydi.
2. Qonun buzilish holatlarida javobgarlik amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.
3. Xarid jarayonlari bo‘yicha hujjatlar arxiv tartibida saqlanadi.

V.Nazoratni amalga oshirish:

1. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat tuman hokimining moliya-iqtisod masalalari bo'yicha o'rinbosariga yuklatilsin.
2. Ichki audit xizmati xaridlar jarayoni ustidan doimiy monitoring olib borsin.

VI. Yakuniy qoidalar

1. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.
2. Avval qabul qilingan mazkur masalaga oid ichki hujjatlar mazkur qarorga zid bo'lgan qismida o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.